

FISKAL SIYOSATNING TAMAL MEXANIZMLARI VA XUM-KO‘ZA

Қурбонов Муҳиддин Абдуллаевич

Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмитаси хузуридаги Фискал институти

“Солиқлар ва солиққа тортиш” кафедраси доценти (PhD)

ТЕЛ:90-644-74-77

Annotatsiya

Mamlakat iqtisodiyotiga davlatning aralashuvi masalasi har doim iqtisodiy adabiyotlarda eng ko'p muhokama qilinadigan mavzulardan biri bo'lib kelgan. Iqtisodiy siyosat doirasida fiskal siyosatining tamal mexanizmlarining turlari va ularning samaradorligi to'g'risida so'z yuritilgan ushbu ishda tegishli o'zgarishlardan kelib chiqadigan iqtisodiy natijalarni asoslash asosiy maqsad qilib olingan.

Kalit so'zlar: iqtisod, siyosat, fiskal, soliq, davlat, xarajat, shaxs.

Аннотация

Вопрос государственного вмешательства в экономику страны всегда был одной из самых обсуждаемых тем в экономической литературе. Основной целью данной работы, в которой рассматриваются виды основных механизмов бюджетной политики и их эффективность в рамках экономической политики, является обоснование экономических результатов, возникающих в результате соответствующих изменений.

Ключевые слова: экономика, политика, фискальная политика, налог, государство, стоимость, человек.

Annotation

The issue of government intervention in the country's economy has always been one of the most discussed topics in economic literature. The main goal of this work, which examines the types of basic mechanisms of fiscal policy and their effectiveness within the framework of economic policy, is to substantiate the economic results arising from the corresponding changes.

Key words: economics, politics, fiscal policy, tax, state, cost, person.

Kirish

Mamlakat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismlari ichida asosiy o'rinlarda turuvchi fiskal siyosatning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, iqtisodiyot rivojlanishida juda katta ahamiyat kasb etadi. Fiskal siyosatning umumqabul qilingan qoidalarga ko'ra to'rtta asosiy yo'nalishlari mavjud: 1. Soliq siyosati 2. Xarajatlar siyosati 3. Qarz olish siyosati 4. Boshqa siyosat.

Soliq siyosati yordamida iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlarning borishiga qarab, soliqlarni oshirish yoki kamaytirish yo'li bilan kerakli yo'nalishdagi

tartiblashlar amalga oshiriladi. Oshirish yoki kamaytirish odatda ikki yo'l bilan sodir bo'lishi mumkin: birinchisida soliq stavkalari o'zgartirilishi va ikkinchisida qamrovi darajasini o'zgartirilishi yordamida amalga oshirilishi mumkin. Agar soliq stavkalari yoki soliq hajmi oshirilsa, kamroq miqdordagi daromadlar jismoniy shaxslar va muassasalarga qoldiriladi va shu tarzda mamlakatdagi umumiy talab nazorat ostiga olinadi. Agar buning teskarisi amalga oshirilsa va soliq stavkalari yoki soliq hajmi kamaytirilsa, jismoniy shaxslar va muassasalar ko'proq ixtiyoriy daromadga ega bo'ladilar, bu esa xarajatlarni va shu tariqa mamlakatdagi umumiy talabni oshiradi. Mamlakat iqtisodiyotining holatidan kelib chiqqan holda, birinchisi iqtisodiyotni sovutish uchun, ikkinchisi esa uni rag'batlantirish uchun ishlatilishi mumkin.¹

Endi yo'nalishlarning ikkinchisi hisoblangan xarajatlar siyosati haqida. Xarajatlar siyosati - bu davlat xarajatlarini ko'paytirish yoki kamaytirishning iqtisodiyotga ta'siriga asoslangan siyosat hisoblanadi. Alohida shaxslar va muassasalarning xarajatlari yordamida, umumiy talab pasaygan sharoitda davlat xarajatlarini oshirish orqali iqtisodiyotni kerakli yo'nalishda jonlantirish mumkin. Bunday holatda, qo'shimcha kuchga ega bo'lganlar bu pulni sarflashlari mumkin, bu esa talabning oshishiga va ishlab chiqarishning tiklanishiga ta'sir qilishi mumkin. Jami talab tez ortib borayotgan sharoitda buning teskarisi amalga oshiriladi, davlat xarajatlari qisqaradi va talab kamayadi, bu esa odamlar qo'lida kamroq ixtiyoriy sarflash mumkin bo'lgan daromadnigina qoldiradi.²

Tahlillar

Fiskal siyosat yo'nalishlarining uchinchisi haqida qisqacha shularni ta'kidlab o'tish mumkin. Qarz olish siyosati - bu iqtisodiyotdagi talabning ekstremal holatda ortishi tufayli o'ta zaruriy ehtiyoj yuzaga kelgan hollarda, boshqacha aytganda, iqtisodiyot haddan tashqari qizib ketishi yoki isishi paytida davlat qarzlarni ko'paytirish orqali sarflanadigan daromadlarni kamaytirishga qaratilgan siyosat hisoblanadi. Agar buning aksi yuz bersa va iqtisodiyot so'vish arafasida bo'lsa, qarzlarni muddatidan oldin to'lash orqali pul bozorga chiqariladi va umumiy talab ijobiy tomonga qarab rag'batlantiriladi.³

Ushbu uchta asosiy tamal fiskal siyosat vositalariga qo'shimcha ravishda, rag'batlantirish siyosatidan tortib tashqi savdo siyosatigacha bo'lgan turli kichik

¹ Pardaev Fayzulla Gaffarovich, & Muxiddin Abdullaevich Qurbonov. (2023). istiqbolda qo'shilgan qiymat solig'i xisobini yuritishda avtomatlashtirilgan dashboardlardan samarali foydalanish. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali , 21 (1), 189–196. <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2877> dan olindi

² Qurbonov Muxiddin Abdullaevich. (2023). davlat xaridlari jarayonlarini tashkil etishi va boshqarishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarni takomillashtirish. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali, 16(1), 170–177. <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2715> dan olindi

³ Qurbonov Muxiddin Abdullaevich. (2023). xufiyona iqtisodiyotda eksport-importni soliqqa tortish tartibi. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali , 21 (1), 176–181. <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2875> dan olindi

siyosatlar ham fiskal siyosatning o'ziga xos vositalari yoki qo'llanilishi mumkin bo'lgan kichik yo'nalishlari qatoriga kiritilishi mumkin.⁴

Ko'p yillar davomida boshqa mexanizmlardan foydalanilmasdan, yolg'iz qo'llanilgan soliq-byudjet siyosati so'nggi yigirma yilda pul-kredit siyosatiga almashtirilgan ko'rinadi. Chunki pul-kredit siyosati fiskal siyosatdan farqli ravishda jamiyat a'zolari ya'ni omma tomonidan oson tushuniladigan siyosat emas. Mamlakat iqtisodiyotida, zaxira talablarini oshirish bilan soliq stavkalarini oshirish o'rtasida katta farq bor. Bu yerda qo'llanilgan jumlaning birinchisini tushunadiganlar soni ikkinchisini tushunadiganlarning bir foizini ham tashkil qilmasligi ko'rinib turgan holat. Shunday qilinsagina, mamlakat iqtisodiyotidagi har qanday keskinlashuvni jamoatchilik ko'zidan yashirish ham osonroq bo'ladi. Bu vaziyat fiskal siyosatning naqadar muhimligini ko'rsatuvchi navbatdagi isbot hisoblanadi.⁵

Bularning barchasini tushundik, lekin sarlavhadagi xum-ko'za nima haqida deb so'rasangiz, bu iqtisodiy siyosatning yana bir dastagidir deb qabul qilishimiz mumkin. Xum-ko'zalar haqidagi ma'lumotlar mamlakatimiz tarixidan bugungi kunigacha juda boy ma'lumotlarga ega. Jumladan, mana bu 2023 yilda Toshkent viloyatining Bo'ka tumanidan Salavkiylar sarkardasining noyob ko'zasi topilib unda yunon ma'budasi tasviri tushirilganligi va ko'zaning miloddan avvalgi III asrga tegishli ekani aytilgan. Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, topilmalar orasida sirtiga ayol qiyofasi bo'rttirib gavalantirilgan toshbaqasimon ko'za noyob hisoblanar ekan. Bu idish qadimgi yunon an'anasiga mos ravishda ishlanganligi bilan ajralib turarkan. Idishga tushirilgan yunon ma'budasining tasviri Turkiyada miloddan avvalgi II asrda qurilgan Apollon ibodatxonasida ham bor ekan.

Yana bir qiziqarli holat, o'tgan asrning 1989 yilida mamlakatimizning Qashqadaryo viloyati Yakkabog'idan bo'lgan mexanizator Mo'minov Abdulim va Kenjayevlar Abdurashidlar Terak qishlog'i hududida yer tekislashayotganda tanga bilan to'ldirilgan ikkita xum topib oladilar. Bu xazina 3850 dona kumush tangadan iborat bo'lgan. Bu topilma sohibqiron Amir Temur hukmronlik qilgan yillarda Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqdagi turli shaharlarda zarb qilingan tanga-pullar bo'ladi. O'rganuvchilarning qayd etishlaricha, bu xazinani buldozerchilar o'z ixtiyorlari bilan tuman militsiyasi vositachiligida Yakkabog' tuman moliya bo'limiga topshirishgan. Moliya bo'limi rahbari bu qimmatli xazinani o'lka muzeyiga topshirmay, uning asosiy qismini Moskvadagi qimmatbaho buyumlarni saqlash xazinasiga jo'natib yuborgan.⁶

⁴ Muxiddin Abdullaevich Qurbonov, & Ergashev Uyg'un Jabborovich. (2023). kameral soliq tekshiruvda inson omilini kamaytirishda smart texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali , 21 (1), 260–268. <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2883> dan olindi

⁵ Qurbonov Muxiddin Abdullaevich. (2023). xufiyona iqtisodiyot sharoitida davlat moliyaviy nazorati va uni takomillashtirish yo'nalishlari. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali , 21 (1), 248–259. <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2882> dan olindi

⁶ Qurbonov Muxiddin Abdullaevich. (2023). xufiyona iqtisodiyot sharoitida nazorat o'rganlari faolyatini yana takomillashtirish. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali , 21 (1), 221–231. <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2880> dan olindi

Keyinchalik 1129 dona kumush tangalar shu atrofda yashovchi aholidan ham yig'ib olinib, O'zbekiston tarixi Davlat muzeyining numizmatika fondiga topshirilgan. Bu dafina ikki nominal (qimmat)dagi tangalardan iborat bo'lib, mirilar 575 donani, tangalar esa 554 donani tashkil etgan. Mirilar, asosan, Samarqandda 1380 va 1405-yillari zarb qilingan bo'lib, ular 562 donani, Xorazmda 1388 va 1404-yillari zarb etilgan mirilar 11 donani va Mordin shahrida zarb qilingani 2 donani tashkil qilgan, ushbu ikki mirining yil sanalari o'chib ketgan.⁷

Xumlarda go'sht bir yilgacha, asal yillar davomida buzilmasdan saqlanishi bilan birga, pomidor yoki boshqa tuzlamalar yopilsa 2 yilgacha sifati saqlanishi xalqimizga qadimdan ma'lum va mashhur. Chunki xumlar mahsulotlarni muzdek saqlab o'ziga xos muzlatkich vazifasini ham o'tay olishar ekan. Hajmi va shakliga qarab xumlar har xil mahsulotlar uchun mo'ljallangan. Lekin biz ko'rib chiqmoqchi bo'lgan mazu doirasida Fiskal siyosatning umumqabul qilingan qoidalarga ko'ra to'rtta asosiy yo'nalishlaridan to'rtinchisi deb sanab o'tganimiz boshqa siyosatni majoziy o'xshatish ma'nosida xum-ko'zalar deb nomlab, xum-ko'zalardan moliyaviy dastaklarning fiscal vositasi sifatidagi ko'rinishidan bahs yuritimiz.

Aytaylik, siz byudjet taqchilligini kamaytirmoqchi bo'lsangiz, soliqlarni qancha ko'paytirmang, ular bunga xizmat qilmaydi va siz maqsad qilgan yo'nalishingizdagi samarani bermaydi. Shunda biz xum-ko'zani qopdan chiqarib ishga solamiz. O'zbekistonda qopdan chiqarilgan xum-ko'zalar orasida xususiylashtirish, pullik harbiy xizmat, soliq imtiyozlari, xorijdan daromad sifatida olib kelingan pullarning soliqqa tortilmasligi kabi holatlar birinchi o'rinda turadi.⁸

Suzuvchi valyuta kursi rejimida banklarga to'g'ridan-to'g'ri intervensiya boshlanishi bilanoq, xum-ko'zani qopdan chiqarib olish pul-kredit siyosatida ham qo'llaniladi. O'sha bosqichda boshqa barcha siyosat vositalari darhol xum-ko'zani qopdan chiqarib olish siyosati bilan almashtiriladi. Biroq, bu siyosat hamma davrlar uchun ham barqaror siyosat bo'la olmaydi. Bu fiscal siyosatning boshqa dastaklarini ishga tushirib olinguniga qadar shunchaki vaqtni tejab bera oladi xolos. Tarkibiy islohotlar davrida shu tarzda olingan vaqtdan unumli foydalanilmasa, bosh qoplarda xum – ko'zalar ham qolmasligi mumkin.

Fiskal siyosatning belgilangan maqsadlar yo'lida amalga oshirilishiga to'sqinlik qiluvchi yana bir asosiy muammo bu norasmiy iqtisodiyotning mavjudligidir. Iqtisodiy aktivlar va ushbu aktivlar bilan bog'liq harakat va voqeliklarni umuman hisobga olmaslik yoki ularni to'liq bo'lmagan miqdorda hisobga olish hamda soliqlar va shunga o'xshash barchaning bajarishi majburiy hisoblangan majburiyatlarga jalb qilmaslik tor

⁷ Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). хуфиёна иқтисодиётга курашиш жараёнида бюджет интизомини мустаҳкамлашнинг зарурлиги хуфиёна иқтисодиётга курашиш жараёнида бюджет интизомини мустаҳкамлашнинг зарурлиги. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 153–165. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2873>

⁸ Qurbonov Muxiddin Abdullaevich. (2023). xufiyona iqtisodiyotni kamaytirishda eksport-import operatsiyalarini takomillashtirish yo'llari. *Jahon ilmiy tadqiqot jurnali*, 21 (1), 269–275. <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2884> dan olindi

ma'noda aytganimizda norasmiy iqtisodiyotni tashkil qiladi. Shu sababli norasmiy iqtisodiyotni moliya sohasida izlanishlar olib boradigan dunyo olimlarining ayrimlari "soliqsiz iqtisod" ham deb atashadi va bunga asosiy sabab qilib norasmiylikni (ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritishni) ko'rsatishadi. Norasmiy iqtisodiyotga qarshi kurashishda ham qopdan chiqariladigan xum-ko'zalarning ichidagi zamon talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan dastaklardan foydalanish mumkin.⁹

Takliflar

Virtual tijoratni imkon darajasida nazoratga olish omillarini ishlab chiqish va qonuniylashtirish, virtual darajada yaratiladigan qo'shilgan qiymatning chegaralarini va belgilarini aniqlash, neyroiqtisodiyotning soliqqa tortish bilan bog'liq tomonlarini o'rganish kabilar kiritishni ko'rsatib o'tgan bo'lardik.

Keying taklifimiz, O'zbekistonda va butun dunyoda iqtisodiy faoliyatni qonuniy ro'yxatdan o'tkazmaslik natijasida ko'riladigan zararlar kattagina miqdorni tashkil qilganligi sababli fiskal dastaklarni qisman va qisqa davrlarda qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, norasmiy iqtisodiyotning oldini olish uchun uning sabablarini chuqur o'rganish zarur.

O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi va barqarorlashuvi uchun fiskal siyosatning tamal mexanizmlaridan oqilona va ko'zlangan maqsadlar yo'lida foydalanish boshlang'ich nuqta bo'lishi kerak. Fiskal siyosat samaradorligi sabablarining biri bo'lgan optimal soliq yukini uzoq muddat foydalana oladigan va ishonchli holga keltirish kerak. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, soliq yukini kamaytirish ham xuddi shunday darajada davlat xarajatlarining yetarli darajada moliyalashtirilmay qolishi muammosini ham keltirib chiqarishi mumkin. Xulosa qiladigan bo'lsak, tadqiqotlar ko'rsatishicha mamlakatimizdagi soliq to'lovchilar yetarli darajada to'lov qobiliyatiga ega ekanliklarini his qilishganlaridagina, rasmiy iqtisodiyotda ishtirok etish istaklari oshib, fiskal siyosatning soliqqa oid hisoblangan to'lovsizlik muammosiga qarshi kurashda o'zlari ham faol ishtirok etishlari mumkin ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА БЮДЖЕТ НАЗОРАТИНИНГ ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 197–210. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2878>
2. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА НАЗОРАТ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. World Scientific Research Journal, 21(1), 221–231. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2880>

⁹ Курбонов, М. (2020). Зарубежный опыт эффективного использования финансовых ресурсов государственных целевых фондов. Экономика И Образование, 1(5), 163–166. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4823

3. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 248–259. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2882>
4. Мухиддин Абдуллаевич Қурбонов, & Эргашев Уйғун Жабборович. (2023). КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВИДА ИНСОН ОМИЛИНИ КАМАЙТИРИШДА СМАРТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 260–268. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2883>
5. Курбонов, М. (2020). Зарубежный опыт эффективного использования финансовых ресурсов государственных целевых фондов. Экономика И Образование, 1(5), 163–166. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4823
6. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ ТАРТИБИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 176–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2875>
7. Пардаев Файзулла Гаффарович, & Мухиддин Абдуллаевич Қурбонов. (2023). ИСТИҚБОЛДА ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ ХИСОБИНИ ЮРИТИШДА АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ДАШБОРДЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ. World Scientific Research Journal, 21(1), 189–196. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2877>
8. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТНИ КАМАЙТИРИШДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 269–275. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2884>
9. Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТГА КУРАШИШ ЖАРАЁНИДА БЮДЖЕТ ИНТИЗОМИНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ЗАРУРЛИГИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 153–165. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2873>
10. Файзиев, Ф. А. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ЎЗИНИ ЎЗИ БАНД ҚИЛИШ: РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА СОЛИҚ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ. Gospodarka i Innowacje., 42, 426-434. https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/2099
11. Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич. (2023). КЎЧМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. World Scientific Research

- Journal, 21(1), 232–247. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2881>
12. Нурманов, У. А. (2022). ИҚТИСОДИЁТНИ ГЛОБАЛЛАШУ ШАРОИТИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ТАҲЛИЛИНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. "Экономика и туризм" *международный научно-инновационный журнал*, 4(6). Retrieved from <http://interjournal.uz/index.php/journals/article/view/82>
 13. Rahimov M.Yu. (2013). An analysis of the financial condition of economic entities. Educational manual. -Т.: Finance.
 14. Нурманов, У. А. (2022). ХЎЖАЛИК СУБЪЕКТЛАРИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 5(2). Retrieved from <https://tadqiqot.uz/index.php/economy/article/view/4757>
 15. Рахимов М.Ю. Иқтисодий субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили. Ўқув қўлланма.-Т.: "Iqtisod-Moliya", 2013. -390 б.
 16. Pardayevich, K. B. (2023). Analysis of the Maximum Volume of Production in Cement Production Enterprises in Uzbekistan. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 5(6), 1-8. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/4460>
 17. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Меҳнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>
 18. М.Ю.Рахимов. (2023). МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ТАҲЛИЛИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 211–220. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2879>
 19. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>
 20. Тулаев Мирзакул Саламович. (2023). КОРХОНАЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАШҚИ АУДИТОРЛАР ТОМОНИДАН ТЕКШИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 16(1), 252–258. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2724>
 21. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. *Ақтуар молия ва бухгалтерия ҳисоби*, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>

22. Yakubov U. (2021). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND METHODOLOGY IN ORGANIZATION OF JOINT VENTURES. *Эконмока и бизнес: теория и практика.* 4-2 (74). ISSN 2411 0450.
23. Асаналиевна, С. З. (2022). Факторы Устойчивого Развития Предприятий. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 3(4), 65-70. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QSMX8>
24. Yakubov U. (2022). MODELING THE ANALYSIS OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY. *Web of scientist: International scientific research journal* ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 2
25. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>
26. Ibragimov G. (2022). Digitalization of the economy of Uzbekistan: experience and prospects. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS)*, 12(05), 102-109. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-May2022.pdf>
27. Tulaev, M. (2021). МҲХС БЎЙИЧА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ: ТАЙЁРЛАШ ВА АВТОМАТЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований.*
28. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>
29. Sultanov, M. (2023). Features of Dividend Allocation and Taxation in Investment Funds of Uzbekistan. *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR)* ISSN, 2249(0892).
30. Klichev, V. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантиришни такомиллаштириш масалалари. *Молия*, 2014(5), 10–15. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>
31. Ibragimov, G., & Yakubov, U. (2015). Agricultural Development in Uzbekistan. *SCIENTIFIC ENQUIRY IN THE CONTEMPORARY WORLD: THEORETICAL BASICS AND INNOVATIVE APPROACH*, 74. Retrieved from https://bmpubgroup.com/assets/1_26_4_1.pdf#page=75
32. Gayratjon Ibragimov Artikovich. (2022). GLOBAL DIGITALIZATION AND THE PLACE OF UZBEKISTAN. IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6627529>
33. Ibragimov G. (2023). Problems of training financial analysts in the republic of Uzbekistan. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences*

- (IJRESS), 13(06), 108-115. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS11June23-Uzb.pdf>
34. Sagdillayeva, Z. A. (2023). BUSINESS ANALYSIS IS A NEW DIRECTION OF ANALYTICAL WORK. *Intent Research Scientific Journal*, 2(6), 93-104.
35. Asanalievna, S. Z. (2022). ASSESSMENT OF THE FINANCIAL STABILITY OF THE ENTERPRISE. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 49(10). Retrieved from <https://johuns.net/index.php/publishing/454.pdf>
36. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). TAX POTENTIAL AS AN INDICATOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGION. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 41–45. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/305>
37. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF "TAX POTENTIAL" AND METHODS OF ITS ASSESSMENT. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 21–25. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/302>
38. Tulaev, M. (2019). Финансовая отчетность: на пути соответствия национальным и международным стандартам. *Архив научных исследований*, 1(1). Извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/723>
39. Tulayev M., Axmedov A. (2023). Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 8, 71-77
40. Ибрагимов, Г. А. (2023). ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ И ВОПРОСЫ БЕЗОПАСНОСТИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 68-73.
41. Ibragimov, G. A. (2021). Business Analysis In The Digital Economy. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7), 4543–4549.
42. Tulayev M. (2023). Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 6, 134 -138.
43. Samadova Nargiza Rasulovna. (2022). ANALYSIS OF INDICATORS REPRESENTING THE ECONOMIC POTENTIAL OF ECONOMIC ENTITIES AND ITS DISTINCTIVE FEATURES. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 3(11), 108-111. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/2960>
44. Султанов Махмуд Ахмедович. (2023). ИНВЕСТИЦИЯ ФОНДЛАРИДА ДИВИДЕНД СИЁСАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 16(1), 163–169. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2714>

45. Якубов, У. (2023). КОРХОНАНИНГ ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(4), 132–139. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/12603>.
46. Ibragimov G. (2022). Introduction of digital solutions to the economy of Uzbekistan: problems and solutions. *International Journal of Research in IT and Management (IJRIM)*, 12(9), 34-39. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRIM2Sep22-Uzb-1.pdf>
47. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. *Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar*, 4 (20)-сон, 170-175.
48. Ibragimov G. (2022). Keeping records of imported goods while improving customs administration in Uzbekistan. *International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM)*, 12(11), 30-34. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM3Nov22-Uzb.pdf>
49. Nargiza Samadova. (2023). INFORMATION SOURCES OF ECONOMIC COMPETENCE ANALYSIS OF ECONOMIC SUBJECTS AND THEIR CLASSIFICATION. *Academia Repository*, 4(12), 278–283. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/290>
50. Tulaev, M. (2020). Учет корпоративных облигаций. *Архив научных исследований*, 1(25). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2783>
51. Yakubov Ulugbek. (2023). ISSUES OF ASSESSING THE JOINT ACTIVITY OF BUSINESS ENTITIES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 14, 57–61. Retrieved from <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/557>.